

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Xamidov	
O'simliklar dunyosi biosferaning muhim va faol komponenti.....	218
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni dunyo pedagogikasida rivojlanishi	221
V.Abdurakhmanov	
New directions in language learning: combination of online resources and blended learning	223
S.Uraimov	
O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini to'rt darajali jismoniy mashg'ulotlar zinasini orqali oshirish usullari	226
Z.Gapparov	
Yosh futbolchilarning o'yin amplyalariga individual psixologik holatini ta'siri.....	230
J.M.Ishtayev	
O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi futbolchilarning mashg'ulot jarayonidagi psixologik holatini taxlil qilish.....	235
M.Azizov	
"Bioimpedansometriya" yordamida 30-39 yoshli skandinavcha yurish bilan shug'ullanuvchilarning tana tarkibi tuzulishini o'rganish metodikasi	239
D.Mavlanov, R.Nazarov	
Shaxs ichki nizolari va ularning fanda o'rganilganlik holati	245
M.Mirjamolov	
Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilar tayyorlash uchun kinematik va psixo-fiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish.....	248
Ш.Турсунов	
Методика совершенствования физических показателей борцов.....	252
X.Matnazarov	
Ko'krakda krol usulida suzuvchi 11-13 yoshli sportchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirish	257
G'.Xo'jamkeldiyev	
Qisqa, o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni mashg'ulotlar davomida va so'ngida mushaklarni tiklashda maxsus aplikatorni qo'llash samaradorligi	261
O.Xasanov	
Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ippoterapiya mashg'ulotlari asosida aqli va jismoniy funksional holatini rivojlantirish.....	265
B.Nabiev	
Расчет пространственной зависимости температуры и температурной неустойчивости термоэлементов	270
R.Pirnazarov	
To'g'onli ko'llarda ro'y berishi mumkin bo'lgan toshqin xavfini baholashning genetik asoslari.....	277
M.Ж.Есиркепов, А.К.Анарбаев, И.Б. Курманбаев, А.Р.Мусаева	
Патриотическое воспитание молодежи через достижения в тренерской деятельности а.нурмаханова	281
V.Abdurakhmanov	
Alternativ so'roq gaplarning poetik jihatdan o'rganilishi	286
A.Sultonov	
Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi.....	288

O‘SIMLIKLAR DUNYOSI BIOSFERANING MUHIM VA FAOL KOMPONENTI**РАСТИТЕЛЬНЫЙ МИР – ВАЖНАЯ И АКТИВНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ БИОСФЕРЫ****THE PLANT WORLD IS AN IMPORTANT AND ACTIVE COMPONENT OF THE BIOSPHERE****Xamidov Gulyam¹**¹Botanika va biotexnologiya kafedrası professori**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘simliklar olami biosferaning muhim va faol komponenti ekanligi bayon qilinadi, ularning xalq xo‘jaligi, tibbiyot va ko‘pgina sohalardagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Har bir o‘simlikning morfologik tavsifi, tarqalishi, o‘sish muhiti, o‘sish joylari keltiriladi. Har bir turning ahamiyati bayon qilinadi.

Аннотация

В данной статье утверждается, что мир растений является важным и активным компонентом биосферы, показано их значение в народном хозяйстве, медицине и многих других областях. Дано морфологическое описание, распространение, среда произрастания и ареалы каждого растения. Объясняется важность каждого типа.

Abstract

In this article, it is stated that the world of plants is an important and active component of the biosphere, their importance in the national economy, medicine and many other fields is shown. Morphological description, distribution, growth environment, and growth areas of each plant are given. The importance of each type is explained.

Kalit so‘zlar: biosfera, gerbariy, turkum, o‘g‘il, inson, tabiat, xilma-xillik, resurs, jamiyat.

Ключевые слова: биосфера, гербарий, род, вид, человек, природа, разнообразие, ресурс, общество.

Key words: biosphere, herbarium, genus, species, human, nature, diversity, resource, society.

KIRISH

O‘simliklar olami tabiatning insonga bergan buyuk ne‘mati va mehribonligidir. Butun mamlakatimizda keng miqyosda olib borilayotgan madaniylashtirish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan qayta qurish jarayonlarini avj oldirish, tabiiy boyliklardan foydalanishga ham bog‘liqdir. Bunday muhim tabiat boyliklaridan biri-o‘simliklar dunyosi hisoblanadi. Bunday boy va xilma-xil o‘simliklar orasida insoniyat uchun zarur bo‘lgan bir qancha turlari mavjud bo‘lib, ular katta va cheksiz hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 21-apreldagi farmoyishiga muvofiq, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatboshqaruvi tizimi takomillashtirilmoqda, o‘simlik va hayvonot dunyosi ob‘ektlarining muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza etiladigan hududlarni kengaytirish masalalariga ham e‘tibor qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtgacha amalga oshirilayotgan tabiatni muhofaza qilish faolyati natijasida respublikada ekologik vaziyatning barqarorlashuvi kuzatilib, ba‘zi alohida mintaqalarda esa yaxshilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tabiat azaldan Hazrati insonni yashash, mehnat qilish, xordiq chiqarish maskani bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Tabiat insonni barcha moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Uning komponentlari hisoblangan o‘simliklar va hayvonot dunyosi vakillarining inson uchun g‘oyat ahamiyati katta, ular butun borliqni ta‘minlovchi omillardan sanaladi. O‘simliklarda kechadigan noyob fotosintez jarayoni tufayli, nafaqat inson uchun zarur organik modda sodir etiladi va atmosfera havosini kislorod bilan boyitadi. Rus olimi akademik Kostichev ta‘kidlaganidek, “Agar yashil do‘stlarimiz – o‘simliklar olami bo‘lmagan edi, yer yuzida hayot bo‘lmagan bo‘lar edi”. Quruqlikdagi barchao‘simliklar planetamiz atmosferasiga chiqariladigan kislorodni 50 fozini chiqarsa, dunyo okeanidagi algoflora xissasiga qolgan 50 foiz kislorod to‘g‘ri keladi. O‘simliklarning ahamiyati faqatshu bilangina kifoyalanib qolmaydi va balki ular atmosferadagi miqdori doimo oshib borayotgan karbonat angidridi gazini assotsiatsiya qilib, mavjud muhim muvozanatni saqlab turadi. Ma‘lumki, karbonat angidrid barcha yonish jarayonlarida, organik moddalarni cherish jarayonida, geterotrof organizmlarni nafas chiqarish jarayoni va boshqa holatlarda havoga chiqariladi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichi ikki holat bilan xarakterlanadi. Birinchidan atmosfera tarkibidagi kislorodni ko'plab sarflanishi va atmosfera tarkibidagi karbonat angidridni miqdorini oshib borishi bilan. Ushbu ekologik jihatdan muhim holatni normallashtirish, ya'ni optimallashtirish bevosita planetamiz miqyosidagi o'simliklar, ayniqsa o'rmonlar maydonini kengaytirish bilan belgilanadi.

Ma'lum bo'lishicha, bundan oxirgi yuz yillar mobaynida planetamizning o'rmon fondi ikki martaga qisqargan. Buni asosiy sabablaridan biri o'rmonga tushayotgan antropogen ta'sirlar hisoblanadi. Buni ustiga oxirgi yillarda barcha qit'alardagi o'rmon yong'inlari, ularni maydonini keskin kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'simliklar olamining yana bir noyob funksiyalaridan biri, sanoat korxonalarini tomonidan chiqarilayotgan gazlar va boshqa kimyoviy moddalarni neytrallashtiradi. Ular tomonidan chiqarilayotgan fitonsidlar havo tarkibidagi yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi virus va bakteriyalarni o'ldiradi. O'rmon bu toza havo, tuproq va havo namligini me'yorlashtirib turadi.

Ma'lum bo'lishicha, o'rmon resurslaridan yigirma mingga yaqin har xil moddalar va buyumlar tayyorlanilar ekan, ayniqsa ular qurilish materiallari sifatida ko'p ishlatiladi. Balki, o'simliklar olamining beqiyos ahamiyati tufaylidir, ularning areallari qisqarib, tabiiy zahiralari kamayib ketmoqda. Bu borada ular muhofazaga muxtoj bo'lib qoladilar.

Olimlarni ta'kidlashicha, tabiatning har qaysi zonalarini bilish uchun saqlanib qolayotgan tabiiy maydonlarni o'rganish maqsadga muvofiq. Bu borada tabiatimizning go'zal va betakror joylarida qo'riqxonalar yoki maxsus qo'riqlanadigan hudud muhim hisoblanadi. Qo'riqxonalar tabiatimizning bir etaloni bo'lib, ular biotani o'rganiladigan ilmiy laboratoriyalar hisoblanadi. Qo'riqxonalarda maxsus eksperimentlar o'tkazish imkoniyatlari bo'ladi, flora va faunamiz ustidan monitoring olib borish oson kechadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, vatanimizning keng va bepoyon hududlaridagi o'simliklar olamining tabiiy resurslarining hozirgi holatini optimallashtirish, ularda olib borilayotgan ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, muhim tadbirlarni belgilash dolzarb muammolardan sanaladi.

Yashil xazinamiz xisoblangan o'simliklar dunyosi planetamizning yoki biosferaning muhim va faol komponenti hisoblanib, ularning tabiat va insoniyat hayotidagi o'rni va roli g'oyat kattadir. Bu borada buyuk Alisher Navoiyning ustoz Abduraxmon Jomiy shunday ta'kidlaydi:

“Bu jahon saxrosida neinki o'ssa bir xislatga yor”.

Haqiqatdan ham o'simliklar olamining foydali xossalarini sanab oxiriga yetib bo'lmaydi. Yana shuni eslash kerakki, eng shirin – shaker moddalarimiz va asal ham o'simliklar mahsulotlari hisoblanadi.

Bu borada Zaxiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” asarida quyidagilarni tariflaydi: Qobul shahrining Ko'xiston tomonidan bisyor asal kelur, Arki tomonidan asal kelmas. Zukko zexnli Boburning bu jarayoni asosida, ya'ni ko'p asal kelishini boisi, u joylarda xilma-xil asalli o'simliklarning ko'p bo'lishligi, ikkinchi tomonda esa o'shanday o'simliklarning bo'lmasligini tushunadi.

Quyida aholi tomonidan ko'p iste'mol qilinadigan turlar hamda har xil maqsadlarda (dorivor va oziq-ovqat sifatida) foydalaniladigan turlardan misol keltiramiz.

Korolkowia Sewerzowii Regel – olg'i, qaysiki uning ildizida kraxmal moddasi ko'p bo'ladi. Uning ildizi quritilib, kelida maydalanadi, u sutda pishirilsa maxsus shiringuruchni eslatadi. Olg'i ko'p yillik o'simlik bo'lib, piyozdoshlar oilasiga mansub, ko'proq u tog'liq va tog' oldi hududlarida tarqalgan, ham dorivor, ham oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadi.

Olg'i o'simligining xalq orasida mashxurligi to'g'risida shunday qatorlarni keltiramiz.

**Olg'i demang bizni
Uch oy boqamiz sizni
Arpa nonni ko'rganda
Unutasiz bizni**

Ushbu etnobotanikaga doir misralar xalq orasida bejiz to'qilgan emas. Qiyinchilik yillari olg'i ildizini ko'p odamlar terib, quritib (sutga solib pishirib) iste'mol qilishgan.

Olg'ining yana ikkinchi xosiyati borki, u ham bo'lsa uni gullari tomonidan nectar ajratishidir, shu bois uning gullari asalari va boshqa hasharotlar tomonidan sevib qo'niladi. Yerli aholi tomonidan sevib iste'mol qilinadi, u tabiatda qalin qoplamlarni tashkil qilmaydi. Shunga qaramasdan olg'i muhim kraxmalli (oziq-ovqatli) va asalligligi bilan diqqatga sazovordir.

XULOSA

Mamlakatimizning mo‘tadil iqlim sharoiti va tabiati, rang barang xom ashyobop o‘simliklarni tarqalishini taqozo etadi va ularni orasida saponinli, ozuqabop, tannin, alkaloidli, vitaminli, asalli o‘simliklar talaygina hisoblanadi.

Tabiiy resurslar – insonning yashash vositasi bo‘lib, inson ularni tabiatdan oladi va ularsiz ishlab chiqarish faoliyatining amalga oshira olmaydi. Tabiiy resurs xisoblanadigan o‘simlik, insonga oziq – ovqat, kiyim – kechak, yoqilg‘i va energetika xom shyolari berish sababli yashash va ishlab chiqarish faoliyatining zaruriy shartidir. Ular umumxalq boyligi bo‘lishi bilan birga , ham hozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qilishlari kerak, Xullas, bizdan kelgusi avlodlarga sof va go‘zal tabiat qolsin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ю. Одум Экология, том 1, 2 Москва 1986.
2. Н.Ф.Реймерс Природопользование, Москва, 1980
3. Г.Хамидов, М.Назаров, М.Холикулов, С.Пуллатов Табiiй ресурслардан самарали фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. Уқув-услугий қўлланма, Фарғона, 2017